



Xalq ogʻzaki ijodida "ota-ona" konsepti masalasi

Salimova Baxtiniso Azamat qizi

QarDU talabasi, 2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning azal-azaldan ota-ona duosi bilan yuksalgan, ota-ona rizoligi Alloh va xalq rizoligiga oʻxshatgan millatimizga xos boʻlgan milliy qadriyatlarimizni asrab -avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish borasidagi ishlarga koʻmak tarzida "ota-ona" konseptiga tarif berdik.

Kalit soʻzlar: Xalq ijodi, xalq ogʻzaki ijodi, maqol, ertak, topishmoq, oʻxshatish, sifat, belgilar.

Xalq ijodi bu xalq ommasining badiiy -amaliy yoki havaskorlik faoliyatidir. Ananaviy moddiy yoki nomoddiy madaniyatning xalq ogʻzaki badiiy ijodi, musiqasi, teatri, oʻyinlari, qoʻgʻirchoqbozlik, dor va yogʻoch oyoq oʻyinlari, xalq tasviriy-amaliy bezak sanʼati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyoti turlari mavjud.¹

"Oʻzbek tili izohli lugʻati"da ota-onaga quydagicha tarif beriladi:

Ota — - 1 Farzandli, bola-chaqali er kishi (oʻz bolalariga nisbatan). Ota boʻlmay, ota qadrini bilmas. Maqol. Siz otamisiz, nimasiz axir, oʻgʻlingizni tiyib olish sira esingizga keladimi A. Qodiriy, Oʻtgan kunlar. Tojiddinning otasi ham kampirining oʻlimidan keyin koʻp oʻtmay vafot etgan edi. S. Zunnunova, Olov. Ota kasb - Ota shugʻullangan kasb (farzandga nisbatan). Beshiksozlik Rahim akaga ota kasb. «Saodat». Katta boʻlgach, hammollik menga ham ota kasb boʻlib qoladi. P. Tursun, Oʻqituvchi. Ota yurt (yoki makon)



Ota tug'ilgan, o'sib-ulg'ayib yashagan joy. Nusratbekning ota yurtida ilgari ham saratonda, ikki-uch yilda shunday bir shamol esib, palaklarni ag'darib ketardi. S. Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi. Bir zumgina chayqalib oldi Ota makon – qirlarim, cho'llar. S. Sayyid. Otasi - etn. Xotinning o'z eriga murojaat etish shakli. Qayin ota (qaynota) Er-xotinning otalari (erga nisbatan xotinning otasi yoki xotinga nisbatan urning otasi). Sal o'tmay, hovliga Salimjonning qaynotasi savlat to'kib kirib keldi. Gazetadan. 2 Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi. Otalar so'zi – aqlning ko'zi. Maqol. Yunusali ota qayoqqa borishni bilmay, hardamxayol bo'lib turgandan keyin idora tarafga yo'l oldi. S. Ahmad, Ufq. Qoratoy O'rozni darrov Shokir otaga yubordi. Oybek, Tanlangan asarlar. 3 O'g'il bolani erkalatish uchun ishlatiladi. 4 ko'chma Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida. Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining otasi-dir. Jukovskiy rus aviatsiyasining atasidir. 5 ko'chma Mehribon boshliq, rahnamo haqida. U - [Mixail Markovich] kolxozchilarga ota bo'ldi, g'amxo'rlik qildi, ish o'rgatdi. Oydin, Mardlik – mangulik. 6 El-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug' zot haqida - [Yormat:] Tayyorlan, qizim, Senga yurt otasi, ellikboshimiz gapiradilar. Oybek, Tanlangan asarlar. Bor otangga, bor onangga - Sansalorlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Ota go'ri qozixonami - q. go'r. Otangga rahmat Kimsadan mamnun ekanlikni ifodalovchi olqish iborasi. «Otang yaxshi, onang yaxshi» qilib Yalinib-yolvorib; olqab-maqtab.

Ona— 1 Farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin. Ko'p bolali ona. Bola yig'lamasa, ona emchak bermas. Maqol. Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi. Maqol. Qiz ertalab turib, darrov onasiga razm soldi. Oybek, Tanlangan asarlar. Ona tili - Bolaning go'daklikdan kattalarga taqlid qilib o'rgangan tili, tug'ma til (odatda gapiruvchi shaxs mansub bo'lgan xalq tili). Onayi zor, onaizor Mehribon, g'amxo'r ona; onaning mushtiparligini, mushfiqligini, mehribonligini ifodalash shakli. Onayi zor emasmi, ustunni ushlagancha.. bolasining tovushi kelayotgan tomonga termilib qoldi.



Oydin, Mardlik – mangulik. Toshkentdan kelgan xat onaizor yuragiga g'ulg'ula soldi. Mirmuhsin, Umid. -Bolam, – dedi-yu, onaizor yana olamga tinchlik tilaydi: -Onalar.. g'am chekmasin, osmonimiz musaffo bo'lsin. Onang o'rgilsin - q. o'rgilmoq. Onasi - etn. Erning o'z xotiniga uning ismini aytmay murojaat etish shakli. Hoy, onasi, suyunchini cho'z. E. Rahim, Yangi qadam. Qayin ona - ayn. qaynana. Qahramon ona O'nta va undan ortiq bola tug'ib voyaga yetkazgan onalarga beriladigan faxriy unvon. 2 Oila boshlig'i, tarbiyachisi. Bular uchun alohida qozon osilarmidi. Siz hammasining onasi, u kishi – ota. Usta bolani juda yaxshi ko'radilar. A. Qahhor, Tomoshabog'. 3 Keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomiga qo'shilib ishlatiladi, mas. Tojixon ona, Norjon ona. 4 Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat etish formasi. 5 Bola tuqqan jonivor. Toychoqning onasi. Ona qo'y. Yaxshi buzoq ikki onani emar. Maqol. Ona ari urug'lagandan keyin bir sutkada 1500–2000 tagacha tuxum qo'yadi. «Fan va turmush». 6 ko'chma Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. yer – hayotning onasi. Gapning onasi - Gapning po'skallasi, bo'lgan-turgani, haqiqati. -Otangizga rahmat, Yusvali tog'a! – dedi boshini qimirlatib Meli polvon. – Gapning naq onasini aytdingiz-qo'ydingiz. P. Tursun, O'qituvchi. Ona Vatan (yoki yurt) Kishi tug'ilib o'sgan, uning uchun muqaddas sanalgan mamlakat. Yana ko'ngli ona yurtini, baland tog'lar, ko'm-ko'k yaylovlarni qo'msab, bag'rini zax yerga berib yotib oldi. S. Anorboev, Hamsuhbatlar. Ona suti og'ziga keldi - q. og'iz. Voy-voy, Gulnora singlingni Azizboynikidan olib chiqqunimcha naq ona sutim og'zimga keldi. N. Safarov, Sharq tongi. Ona sutiday pok (yoki halol) Hyech qanday nopoklik, qalbakilik aralashmagan, kishining o'z peshona teri evaziga kelgan. Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol bo'lsin. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Ona tuproq Kishi tug'ilgan joy. Keyin bilsam, xuddi o'sha bir quloq yer mening ona tuprog'im ekan. A. Obid-jon, Akang qarag'ay Gul - mat. Ona xalq Kishining o'zi mansub bo'lgan xalqi. Bechora emas, yo'q, ko'ngli sutday pok, ammo ko'p jabru jafo chekkan mening ona xalqim bugun ma'naviy madadga juda-juda tashna. Gazetadan. Ona qizim Erkalatish, alqash ma'nosida qo'llanadigan ibora. Shunday ekan, men



senga yomonlikni ravo ko'rmasman, ona qizim. T. Ashurov, Oq ot. Onadan tug'ma bo'lib Har qanday kasallikdan yoki balo-qazolardan xoli bo'lib, aslidagiday; sog'lom, hych narsa ko'rmaganday. Bu o'zgarishdan keyin onadan tug'ma bo'lib, yengil tortdi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. Onasi o'pmagan qiz Begona qo'l tegmagan, pok, iffatli qiz; bokira. Puling bo'lsa, onasi o'pmagan malika qizlar sanga quchoq ochadi. Oybek, Tanlangan asarlar. Onasini ko'rsatmoq Ta'zirini bermoq, jazolamoq. Ustozim ikkimiz laboratoriyaga o'tib olib, shunaqangi sehrli dorilar yasaylikki, ey iblis, endi onangni uchqo'rg'ondan ko'rasan. X. To'xtaboev, Shirin qovunlar mamlakati.

O'zbek xalq og'zaki ijodining har bir jabhasida ota-ona konseptining o'ziga xos yuritilishini ko'ramiz ,xususan ,o'zbek xalq maqollariga etirofda ko'rishimiz mumkin.

Maqol— [a. – maqola, kichik asar; so'z, nutq] Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap. O'zbek xalq maqollari. Maxdum.. Anvarning biror kambag'al bilan «ezilishib» o'tirganini ko'rsa.. «Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar» maqoli ko'p to'g'ri so'z, deb o'ylar va ensasi qotib, chetga ketar edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.²

O'zbek xalq maqollarida, boshqa manbalarga qaraganda mavzu jihatidan ota -ona mavzusi ko'proq.Maqollarimizda ota-onaning mo'tabarligi ,ulug'vorligi ,o'rni va qadr -qimmat kabi masalalar yoritilgan .Xalqimiz azal -azaldan ota -ona duosi bilan yuksalgan ,ota -ona rizoligini Alloh va xalq rizoligiga o'xshatgan millatdir.Maqollarimizda otaga aql ,bilak,g'amguzor ,oy ,davlat sifatlari berilsa,onaga idrok,yurak ,mehribon ,quyosh sifatlari berilgan .

"Ota —aql ,ona—idrok.

Ota—bilak ,ona—yurak .



Ona—mecribon ,ota —gʻamguzor .

Onangni quyosh bilsang ,otangni oy bil."³

" Otalar soʻzi —aqlning koʻzi ,onalar soʻzi —baxtning oʻzi ", "Onalik uyning ori bor ,otalik uyning— zari. "Maqollarimizda ota -onaning tengsizligini va ularning tengsiz xazinamiz ekanligidan darak bergan .

Topishmoq— Topishmachoq oʻyinida- topilishi kerak boʻlgan narsa, hodisa va sh.k. ning ramz va oʻxshatmalar orqali ifodalangan qisqa tavsifi; jumboq. Xalq topishmoqlari. Bolalar Nuridan soʻrashdi. Nuri ertak emas, bir necha topishmoq aytishga majbur boʻldi. Lekin ogʻzidan chiqmasdan, bolalar topaverdi. Oybek, Tanlangan asarlar. 2 koʻchma - kam qoʻll. Tushunilishi qiyin, sirli narsa; jumboq, muammo. Gaplaringiz xuddi topishmoqqa oʻxshab ketadi. S. Siyoev, Yorugʻlik. Hayot ham goho topishmoqqa oʻxshab qoladi. Tez orada taqdiringiz hal boʻlishini bilasiz-u, ammo nima boʻlishi-ni, qanday boʻlishini topolmaysiz. Oʻ. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.⁴

Topishmoqlarda ota- ona konsepti oʻziga xos qilib tasvirlanadi ,ota -ona nimaga qiyoslansa ,oʻsha narsa asosiy va topishmoqni anglashda kerakli belgilarni ifodalaydi .Ota-ona oilaning asosi boʻlib,boshqaruv ,taʼminot ,tarbiya ham ularning zimmasidadir .Quydagı topishmoqlarda ota -ona ana shunday predmetlarga oʻxshatilgan .

Otasi egri ,bolasi chopqir yoʻrgʻa. (Ariq ,daryo)

Otasi bukri xoʻja,

Onasi yoyma chalpak,

Bolasi shirin-shakar. (Tok, bargi, uzum)

Ota-onasidan bolasi shirin. (Tok, bargi, uzum)

Otasi egri -bugri,



Onasi silliq juvon,

O'g'li qo'shiqchi,

Qizi o'yinchi (Ariq ,suv,baqa, baliq)⁴

Ertak —1 Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; cho'pchak. Ertak aytmoq. Bir ariqda sut, ikkinchi ariqda sharbat – ertaklarda bo'ladi! S. Anorboev, Oqsoy. Ilmiy fantastik asarlar bilan adabiy ertaklar o'zaro yaqin aloqadadir. «Fan va turmush». 2 Hikoya, qissa, voqyea. Unsin hamma voqyeani – akasi bilan Gulnorning sevgi ertagini kampirdan to'la eshitdi. Oybek, Tanlangan asarlar. Yolg'iz Tiktepa qishlog'idagina emas, tevarak qishloqlarda ham mulla Obidning ertagi, ekindagi muvaffaqiyati og'izdan og'izga yurib ketdi. A. Qodiriy, Obid ketmon.⁵

O'zbek xalq ertaklarida "ota-ona" konseptining o'ziga xosligi,ulardan qolgan buyum yoki jonivor ertak qahromoni uchun or-nomus va qadr-qimmat ramzi hisoblanadi , halokatli vaziyatlardan qutqaruvchi vositalar yoki hayotni asrab qoluvchi nasihatlar ham aynan ota-onalarga tegishli .Ertaklarda ota-ona oila asosi ,taminotchi va nasihat hamda boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar farzand uchun eng yaqin inson sifatida beriladi. Xususan, "Uch og'ayni botirlar" ertagida otaning donoligi va nasihatgo'yiligi farzandlar hayotini asrab qoladi.

Xullas, xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, maqol va topishmoqlar xalqimizning milliy-ma'naviy qadriyatlari, mentaliteti bilan bog'liq.Ota -ona konsepti bilan bog'liq maqollar shaxs dunyoqarashini shakllantirishda u mansub bo'lgan xalqqa tegishli madaniyat muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.Ota konsepti aks etgan maqol va topishmoqlar xalq ijtimoiy hayotining hamma sohalarini, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o'zida mujassamlashtiradi. U odamzod tafakkuri,aql-idrokining eng yuksak cho'qqilarigacha bo'lgan tuyg'ularning hammasini qamrab oladi. Qadim -qadimdan



xalqimiz tomonidan ota pirga tenglashtirilgan ,ota -ona orqali jannat eshiklari ochilishi ,ota-onaning rizosi o'ta muhimligi qadriyatlarimizda saqlanib qolingan .Bu kabi qadriyatlar xalq og'zaki ijodi balki, diniy asarlarda, ajdodlarimiz qo'lyozmalari ,badiiy asarlari ham yetib kelganligining guvohi bo'lishimiz mumkin .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi.Toshkent ."Mumtoz so'z".2010
2. O'zbek tili izohli lug'ati.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti.2007
3. O'zbek xalq maqollari."Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi .Bosh tahririyati.Toshkent 2005
4. Topishmoqlar .Toshkent.G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti .1981